

YANGI O‘ZBEKISTON MAHOBATLI RANGTASVIR SAN’ATINING BUGUNGI KUNDAGI TARAQQIYOT YO‘LI

Erkabaeva Feruza Asilbekovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Amaliy san’at fakulteti Chizmatasvir kafedrası katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston mahobatli rangtasvir san’atining bugungi kundagi taraqqiyot yo‘li haqida.

O‘zbekistonda mahobatli rangtasvir san’atining rivojlanish shakli, taraqqiyoti dunyo mamlakatlari misolida ham keltirib o‘tilgan. Mavzu bo‘yicha rassom A. Aliqulov ijodi va asarlari tahlil qilib o‘rganilgan.

KALIT SO‘ZLAR: *Tasviriy san’at, ijtimoiy hayot, mahobatli rangtasvir, ijodkor, asar, jamiyat, taraqqiyot, xalqlar do‘stligi, milliy liboslar, mamlakat, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarash, g‘alaba.*

ПУТЬ РАЗВИТИЯ МОНУМЕНТАЛЬНОЙ ЖИВОПИСИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА СЕГОДНЯ

АННОТАЦИЯ:

В данной статье описан путь развития монументальной живописи Нового Узбекистана сегодня.

Развитие монументального искусства живописи в Узбекистане и пути развития также приводятся в пример стран мира. По теме Проанализированы и изучены произведения художника А. Аликулова.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Изобразительное искусство, общественная жизнь, монументальная живопись, творец, работа, общество, развитие, дружба народов, национальные костюмы, страна, духовное мировоззрение, победа.*

THE PATH OF DEVELOPMENT OF MONUMENTAL PAINTING OF NEW UZBEKISTAN TODAY

ANNOTATION:

This article describes the path of development of monumental painting in New Uzbekistan today.

The development of monumental art of painting in Uzbekistan and the path of development are also cited as an example for countries around the world. On this topic The works of the artist A. Alikulov are analyzed and studied.

KEYWORDS: *Fine arts, public life, monumental painting, creator, work, society, development, friendship of peoples, national costumes, country, spiritual worldview, victory.*

Tasviriy san'at inson faoliyatining bir turi sifatida shakllanish usullariga ko'ra: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlikka bo'linadi. Yuzadagi tasvirlar rangtasvir va grafikada namoyon bo'ladi, haykaltaroshlik esa uch o'lchovli makondan foydalanadi[1,8].

Yuzadagi tasvirlar qadimgi davrlarda paydo bo'lgan, ammo dastlab ular qadimgi odamlar yashagan makon va turar-joy inshootlarining ajralmas qismi bo'lgan. Bunga mahobatli rangtasvirga asos solgan paleolit davri qoyatosh rasmlari (Altamir, Lasko, Shovet, Shulgantosh g'orlaridagi suratlar) ajoyib misol bo'la oladi. Tosh, g'isht va beton (Qadimgi Rim) inshootlarining ichki va tashqi ko'rinishining badiiy dizaynini to'ldirish va boyitish, mahobatli rangtasvir me'moriy ansamblning muhim tarkibiy qismiga aylandi[3,5].

Mahobatli rangtasvirni monumental-dekorativ rangtasvir yoki tasviriy dekor deb ham atashadi, bu tasvirning maxsus dekorativ maqsadini ta'kidlaydi. Mahobatli rangtasvir asarlari vazifasiga ko'ra hajmli-fazoviy yoki planar-dekorativ tarzda loyihalashtiriladi.

Mahobatli rangtasvir dunyodagi eng qadimiy san'at turlaridan biri sifatida o'zining rivojlanishi davomida Sharq va Yevropa rassomlarining katta e'tiborini tortib keladi. Bu sohada Sharqda ham, Yevropada ham ulkan zafarlar qozongan. Shunga qaramay mahobatli rangtasvir eng ko'p Osiyo mamlakatlarida rivojlangan: Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari shular sarasidandir[13].

Aytib o'tish joizki, Sharq va boshqa qit'alar mamlakatlarida rangtasvirning rivojlanishida farqlar mavjud. Yevropa mamlakatlari mahobatli rangtasvirda nisbatan barqaror muvaffaqiyatga erishdi. Sharqning aksariyat mamlakatlari turg'unlik davrlarini boshidan kechirdi. Xitoyda mahobatli rangtasvir murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Agar san'at tarixida umuman tasviriy san'atga oid maxsus asarlar ko'p bo'lsa, u holda mahobatli rangtasvir va uning tamoyillari deyarli mualliflar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Devoriy suratlarning rivojlanishi mamlakat jamiyatining iqtisodiyoti va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq.

Shu o'rinda O'zbekiston tasviriy san'atida mahobatli rangtasvir san'atining bugungi kundagi tarraqqiyotini o'rganar ekanmiz ko'plab rassomlarning yuksak ijod namunalari bilan tanishamiz.

Yangi O'zbekistonning shunday serqirra rassomlaridan biri bo'lgan A.Aliqulov asarlari hozirgi kunda ko'plab arxitekturaviy ob'yektlar devorlarida o'zining turli-tuman mavzulari bilan o'zgacha mazmun hamda ahamiyat kasb etmoqda[14].

Alisher Aliqulov ijodidagi eng sara asarlardan biri bu 2021-yilda Toshkent Xalqaro institutining ochilishiga bag'ishlab ishlangan "Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari do'stligi" kartinasi bo'lib, unda murakkab kompozitsion uyg'unlikni ko'rish

mumkin. Asarning asosiy bosh planida o‘zbek milliy urf-odat an‘analariga xos bo‘lgan sumalak saylida ayollarning chordona o‘tirib, doira chalib sumalakni pishirayotgan bo‘lsa, uning orqasida yana bir ajoyib an‘analarimizdan biri bo‘lgan kelin salom, beshik ko‘targan chol va kampir, patnis to‘la non ko‘targan yigit obrazlari gavdalanadi. Ularning boshi uzra uchib borayotgan samoviy qush izidagi milliy mato ramzi o‘zgacha ahamiyat kasb etgan.

Boshqa tomonda turkman xalqlarining milliy libosidagi kelin va kuyov hamda milliy matosi, soz ushlagan baxshi, ayollarning boshida dasturxon o‘ralgan tuguni bo‘lgan “Bordi-keldi” kabi rasm-rusumlari aks ettirilgan.

Shu bilan birga qozoq milliy libosidagi ayollarning kundalik turmush ishlari va qirg‘iz baxshisining soz chalib o‘tirgani tasvirlangan. Go‘zal tabiat qo‘ynida bolalar gavjumligidagi “Varraklar sayli” va har bahorda barcha intiqib kutadigan hamda kuzatadigan otchoparlar poygasi, chizmalar ustida ish olib borayotgan quruvchilar ham asar butunligini tashkil etadi .

Asarning eng yuqori orqa fonida arxitekturaviy inshootlar ishlangan. Asarda Markaziy Osiyo davlatlari xalqlarining milliy liboslari, milliy an‘analari bilan birga do‘stligining mustahkamligi namoyon etilgan.

Kartinani kuzatar ekanmiz prezidentimiz Sh Mirziyoev tashabbusi bilan 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Xalqlar do‘stligi kunini” nishonlash orqali jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta‘minlash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga mansublik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma‘rifiy aloqalarni kengaytirish maqsadidagi taklifini berganligi yodga tushadi[14].

Xalqlar do‘stligi - insonlar, xalqlar, davlatlar – umuman olganda jamiyatning turli qatlamlari hamda tuzilmalari o‘rtasida hamjihatlik, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirishdan iboratligini ijodkor yana bir bor o‘z asarida namoyish qilgan.

Bu asar O‘zbekistonning ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish borasidagi tashabbusining tasviriy hamda amaliy ifodasidir.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning aholisi eng ko‘p, boy tabiiy zahiralarga ega va geografik jihatdan qulay joylashgan mamlakati bo‘lib, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi o‘rin tutadi[9,18]. O‘zbekistonning qo‘shni mamlakatlar bilan munosabati do‘stona, yaqin qo‘shnichilik, o‘zaro manfaatlarni tan olish hamda har qanday masalani hal qilish uchun muloqotga tayyorlik tamoyiliga asoslanadi. Asar mazmun-mohiyatiga ko‘ra yuqoridagi barcha fikrlarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Yangi O‘zbekiston mahobatli rangtasvir san‘atining tarraqqiy etishida rassom A.Aliqulov ham o‘zining ulkan xissasini qo‘shib kelmoqda. Uning har bir asarida

ma'lum bir makon hamda zamon voqea hodisalarini tugal yechim asosida tasvirlaydi. Rassom ijodini kuzatgan tomoshabin o'ziga xulosa chiqarish bilan birga yangicha ma'naviy-marifiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Rassom ijodidagi yana bir durdona asarlaridan biri bu Toshkentning G'alaba bog'idagi Shon-sharaf muzeyidagi yirik kartinasidir. Bizga ma'lumki o'zbek xalqining o'g'lonlari ham Ikkinchi jahon urushi frontlarida mardlik va qahramonlik ko'rsatdilar. Stalingrad shahri himoyasida ko'rsatilgan jasorati uchun o'zbek askarlariga harbiy orden va medallar topshirilgan. Dnepr jangidagi qahramonliklari uchun Sovet Ittifoqi qahramoni unvoniga sazovor bo'lishgan. Dushman tomonidan vaqtincha bosib olingan hududlarda o'zbeklar partizan otryadlarida jang qilganlar. Rassom ijodidagi ushbu asar g'alabaning 75 yilligiga bag'ishlab ishlangan bo'lib, o'zbek xalqining mard va jasur o'g'lonlari hamda ularni intizorlik bilan kutayotgan oilalar, g'alaba uchun duoga qul ochgan yoshi ulug'larning obrazlarini tasvirlagan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mahobatli rangtasvir asarlari insonning aql-zakovati, tafakkurini, tabiatda sodir bo'lib turadigan katta - kichik uzgarishlarni, falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarni ta'sirchan ifodalaydi. San'at asarlari kishilarni milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta xissa qo'shadi.

San'atning barcha sohaları davrlar osha insonlarni, xususan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularga ajdodlar an'alarini yetkazish vositasi bo'lib kelgan[9,17].

Xususan, mahobatli rangtasvir asarlarida voqea va ko'rinishlar doirasining to'laligi turli yo'nalishdagi janrlar orqali va tasviriy san'at, kompozitsion qonun qoidalarga tayangan holda ochib beradi. Ayniqsa, insonlar qalbiga yo'l topishda san'at asarlari har tomonlama ta'sirchan, qudratli kuchga ega. Ularning vazifasi millionlab odamlar uchun quvonch va ilhom manbai bo'lib xizmat qilish. Mahobatli san'at rivoji aynan mana shu asosiy yo'ldan ketadi. Uning taraqqiy etishi davrlar, voqealar, jarayonlar bilan birgalikda kechadi.

Mahobatli rangtasvir asari qaysi uslubda bajarilgan bo'lsa ham, avvalo, asar syujeti ko'zdan kechirib olinadi. So'ngra qanday obrazlar tasvirlangan, bu voqea qachon bo'lib o'tganligi qiziqish o'yg'otadi. Shundan so'ng musavvirning uslubi, qanday buyoq qo'llaganligi, tanlangan ranglar uyg'unligi o'rganiladi[5,26].

Mahobatli rangtasvir asarlari mamlakat hayoti, kuch-qudrati, xalqining tinch turmushini va vatanga, millatga bo'lgan muxabbatini targ'ib etish bilan birga inshootlar devorlarini bezab, ezgulik, insoniylik hamda tarbiyaviylik g'oyalari bilan ma'naviy yuksalishning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bunga hozirga kundagi ko'plab devoriy suratlarni misol keltirish mumkin.

A. Aliqulov tomonidan Imom al Buxoriy majmuasida bunyod etilgan muzey zalining baland devori uchun ishlangan kompozitsiyasi ham fikrimizning isbotidir.

Ushbu rangtasvir asari katta o'lchamli, uzunligi 45, balandligi 2,80 metrga ega bo'lib, unda al-Buxoriyning islom dunyosidagi o'rni, xayoti, ilmiy hamda diniy faoliyatini ochib berishga harakat qilgan. Tasvirda al-Buxoriyning yoshlik davrlaridan boshlab ilm olish maqsadida qator islom mamlakatlariga borganligi, ulug' shayx, din ulamolari bilan bo'lgan muloqoti ta'sirchan hamda ifodali tasvirlangan. Voqea va ko'rinishlar doirasining tulaligi turli vositalar orqali ochib berilgan. Asarni kuzatgan tomoshabin Buxoriyning bosib o'tgan ibratli hayot yo'li va ajdodlarimiz ishlarining naqadar ulug'ligini tushunib yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanov. R., "Tasviriy san'at asoslari", Toshkent, 2009 yil.
 2. Nabiev M., Rangshunoslik. – Toshkent. "O'qituvchi", 1996 y.
 3. "O'zbekiston san'ati". T.: 2001.
 4. Abdirasilov. S., Tolipov. N., - Dastgohli rangtasvir. "Iqtisod moliya". T.: 2010.
 5. O. Mo'yinov "Rangtasvir" Toshkent "Sharq" matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
 6. G'.A. Artiqov. "Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi" Toshkent "Sharq" matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
 7. Amaliy bezak san'ati. Tasviriy san'at. O'zME. Toshkent: 12 tom. 2006; 542-563 betlar;
 8. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы. Среднего Востока Ташкент: 1987;
 9. Qoraboev, U. Madaniyat masalalari. Toshkent: 2009; 18 bet
 10. Степанов, Г.П. "Композиционные проблемы синтеза искусств".- Л. "Художник". 1984
 11. Декоративная монументальная живопись, Шанхай. 1999.
 12. Монументальное искусство.- Л.
- Internet saytlari**
13. <http://www.ziyonet.uz>
 14. <http://www.google.uz>
 15. <http://www.yandex>
 16. <http://www.Wikipedia>
 17. <http://www.kultura.uz>